

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

“TIJORATDA SOCHI OQARGAN...”: THE PROCESS OF SEMANTIC CHANGE IN POLYSEMANTIC PHRASEOLOGICAL UNITS

Shokhsanam Alimjanova

PhD Candidate

Faculty of Foreign Philology, Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

alimjanovash97@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: phraseological unit, polysemy, context, semantic features, figurative meaning, metaphor.

Received: 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25

Abstract: This article analyzes the semantic transformations of polysemantic phraseological units in the Uzbek language. Using a contextual-semantic approach, the polysemantic nature of phraseological units such as “tobi yo‘q”, “tili chiqmoq”, “taxtaga tortmoq”, “suvi qochgan”, “soya solmoq” and “soch(i) oqarmoq” is studied and analyzed. The primary literal meaning of each phraseological unit is determined, and the figurative, metaphorical, and pragmatic meanings that arise under the influence of various contexts are revealed. Based on these analyses, the semantic characteristics and flexibility of polysemantic phraseological units in the Uzbek language are identified.

“TIJORATDA SOCHI OQARGAN...”: POLISEMANTIK FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA SEMANTIK O‘ZGARISH JARAYONI

Shokhsanam Alimjanova

Tayanch doktorant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti

alimjanovash97@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, polisemiya, kontekst, semantik xususiyat, ko‘chma ma‘no, metafora.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi polisemantik frazeologik birliklarning semantik o‘zgarishlari tahlil qilingan bo‘lib, kontekstual-semantik yondashuv asosida “tobi yo‘q”, “tili chiqmoq”, “taxtaga tortmoq”, “suvi qochgan”, “soya solmoq” va “soch(i)

oqarmoq” kabi frazeologik birliklarnig polisemantiklik xususiyati o‘rganilgan va munosabat bildirilgan. Har bir frazeologik birlikning asosiy lug‘aviy ma’nosi aniqlanib, turli kontekstlar ta’sirida yuzaga keladigan ko‘chma, metaforik va pragmatik ma’nolar ochib berilgan. Ushbu tahlillar asosida o‘zbek tilidagi polisemantik frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va moslashuvchanligini aniqlangan.

“TIJORATDA SOCHI OQARGAN...”: ПРОЦЕСС СЕМАНТИЧЕСКОГО ИЗМЕНЕНИЯ В ПОЛИСЕМАНТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Шохсанам Алимжанова

Соискатель степени PhD (докторант), факультет зарубежной филологии

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

alimjanovash97@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологическая единица, полисемия, контекст, семантические особенности, переносное значение, метафора.

Аннотация: В данной статье анализируются семантические трансформации полисемантических фразеологических единиц в узбекском языке. На основе контекстуально-семантического подхода изучена и оценена полисемантическая природа таких фразеологических единиц, как “tobi yo‘q” (нездоров/не в настроении), “tili chiqmoq”, “taxtaga tortmoq”, “suvi qochgan”, “soya solmoq” и “soch(i) oqarmoq”. Определено основное лексическое значение каждой фразеологической единицы и раскрыты ее переносные, метафорические и прагматические значения, возникающие под влиянием различных контекстов. На основе проведенного анализа выявлены семантические особенности и гибкость полисемантических фразеологических единиц в узбекском языке.

Kirish. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari ularning turli kontekstlarda qayta talqin qilinishi, shu orqali semantik jihatdan faollashuvi va konnotativ rang-baranglik kasb etishi bilan belgilanadi. Polisemantik frazeologik birliklar, ayniqsa, kontekstga bog‘liq semantik dinamikaga ega bo‘lib, ma’no o‘zgarishi va polisemiya hosil bo‘lishi ko‘p hollarda kontekstual omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. A.V.Kunin frazeologik semantikaning o‘ziga xosligi va polisemiyasini frazeologik derivatsiyaning semantik tabiati bilan bog‘laydi [1]. A.M.Melerovich

va V.M.Mokienko frazeologik birliklarning semantik variativligi, ya'ni o'zgaras komponentlar asosida yangi semantik ottenkalar hosil qilish qobiliyatini alohida ko'rsatib o'tishgan. Ularning fikricha, frazeologizmlarning konnotativ va stilistik imkoniyatlari kontekst orqali kengayadi, bu esa ko'p ma'nolilikning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi [2]. A.I.Fyodorov frazeologik semantikaning doimiyligini uning o'zgaras, bir xil kontekstual muhitda qo'llanishi bilan izohlaydi. Ammo polisemantik frazeologik birliklar misolida aynan kontekstning o'zgarishi ularning semantik tuzilishida yangi ranglar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun frazeologik birlikning ma'nosi kontekstdan tashqarida to'liq ochilmasligi, balki uni faqat kontekstual qo'llanish orqali aniqlash mumkinligi alohida ta'kidlanadi [3].

O'zbek frazeologiya maktabida Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi olimlar frazeologik birliklarning ko'p ma'noliligi, asosan, ichki forma, madaniy kod, kontekst va metaforik asos orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Sh.Rahmatullayevning fikricha, har bir frazeologik birlik o'zida "mazmunning yashirin imkoniyatlari"ni saqlaydi, bu imkoniyat kontekst ta'sirida yuzaga chiqadi va polisemiya hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "dasturxon qilmoq" frazeologik birligi kontekstga ko'ra "mehmonga yoki to'yga borganda olib boriladigan narsalar", "bir gapni har qayerlarda har kimlarga gapirib, doston qilib yurmoq" kabi bir nechta ma'nolarda qo'llanishi mumkin.

Ko'plab tilshunoslar esa frazeologik birlikda polisemiyaning asosiy manbai sifatida metafora, metonimiya, sinekdoxa va assosiativ tafakkur mexanizmlarini ko'rsatadi. Polisemantik frazeologik birliklarda aynan shu kognitiv jarayonlar ma'noni kontekstga mos ravishda kengaytiradi yoki toraytiradi.

Xususan, R.Mun (1998), A.P.Kovi (1998) va V.Makkarti (2002) kabi tilshunoslar frazeologik birliklarning ko'p ma'noliligi va kontekstga bog'liqligini keng yoritgan. R.Munnni fikriga ko'ra, frazeologik birliklar "semantic opacity" – ya'ni ma'nosining yuzaki ko'rinishdan sezilmasligi – tufayli kontekst orqali qayta aktualizatsiya qilinadi. Shuning uchun idiomlarning ma'nosi doimiy emas, balki "kontekstual qayta talqin qilishga ochiq" hisoblanadi [4]. Tilshunos A.P.Kovi frazeologik birliklardagi polisemiyaning "extended phraseological meaning" deb ataydi va buni frazeologizmlarning kontekst orqali kengaytirilgan semantik maydoni sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, frazeologik birliklar o'z asosiy (dictionary meaning) va kontekstual (textual meaning) ma'nolari o'rtasida faol semantik o'zgarish jarayoniga ega [5].

Polisemantik frazeologik birliklarda semantik o'zgarish quyidagi mexanizmlar orqali yuzaga keladi:

1. Metaforik kengayish – frazeologik birlik metafora asosida yangi ma'no kasb etadi;
2. Metonimik siljish – frazeologik birlik bir-biriga bog'liq tushunchalar asosida ma'nosini o'zgartiradi va semantik jihatdan boyiydi;

3. Kontekstual aktualizatsiya – kontekst frazeologik birlikning ichki semantik imkoniyatini kuchaytiradi va shu orqali yangi konnotatsiyalar yaratilishiga sabab bo‘ladi. Bunda muallif uslubi yoki nutq sharoiti ma’noga qo‘shimcha ekspressiv rang bag‘ishlaydi va frazeologik birlikning polisemiyasini yuzaga keltiradi.

Qolaversa, madaniy-assotsiativ bog‘lanishlar, ya’ni xalqning madaniy tajribasi va konseptual dunyoqarashi turli kontekstlarda frazeologik birliklarning polisemantiklik tabiatini ochib beradi. Stilistik jihatdan, frazeologik birliklarning badiiy matnlarda qo‘llanilishi ham ko‘p hollarda frazeologik birliklarga yangi ekspressiv-semantik tus beradi va polisemiya yuzaga kelishiga olib keladi. Masalan, turli badiiy asarlarida frazeologik birliklar ko‘pincha metaforik shaklda kengayishi va o‘ziga xos konnotatsiyalar hosil qilishi frazeologik birliklarning polisemantik tabiatini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

Masalan, “tobi yo‘q” frazeologik birligi turli kontekstlarda quyidagicha semantik o‘zgarishga uchragan:

- Aka, nimaga jim bo‘lib ketdingiz? Tobingiz yo‘qmi? Ozibsiz-a... (Oybek. Qutlug‘ qon. Asarlar. 3-tom. – Toshkent, 1969. – B. 142.)

Bu kontekstdagi “tobingiz yo‘qmi” frazeologik birligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fiziologik holat, aniqrog‘i, kasallik, betoblik ma’nosida qo‘llangan. Suhbatdosh qahramonning ozib ketganini ko‘rib, uning sog‘ligidan xavotir oladi. Bu yerda denotativ ma’no sog‘liqning yomonlashuvi kontekstual jihatdan tashqi ko‘rinish (ozish) orqali betoblikka ishora bermoqda. Bu kontekstda frazeologik birlik o‘zining asosiy, an’anaviy ma’nosida qo‘llangan.

- Borsam, spravka topa olaman, ammo bormayman, o‘rtoqjon. Shunaqa ishlarga tobim yo‘q. (A.Qahhor. Qanotsiz chittak).

Bu kontekstda “tobim yo‘q” frazeologik birligi fiziologik emas, balki psixologik va irodaviy holat, ya’ni “xohish-iroda yo‘qligi, sabr-bardoshning yetmasligi, ko‘ngilning ko‘tarilmasligi” ma’nosida qo‘llangan. Qahramonning gapida real betoblik emas, balki ma’naviy tayyorgarlikning yo‘qligi, ishga kirishishni istamaslik anglatiladi hamda frazeologik birlik metaforik kengayish bilan qo‘llangan va yangi semantik ottenkani hosil qilgan. Shu orqali frazeologik birlik kontekstga qarab jismoniy holsizlik → psixologik toqatning yo‘qligi sathlarida semantik differensiasiyaga uchraydi. Bu esa A.I.Fedorov ta’kidlaganidek, “kontekst frazeologik ma’noni harakatga keltiruvchi mexanizmi” ekanligini isbotlaydi.

Keyingi frazeologik birlik “tili chiqmoq” misolida ham metaforik kengayish orqali turli kontekstual ma’nolar hosil bo‘lishini ko‘rish mumkin. Masalan:

- Yodgoringning ham tili chiqib qoldi: «dada-dada»ni og‘zidan qo‘ymaydi.

(G‘. G‘ulom. Yodgor)

Bu kontekstda fiziologik-nutqiy rivojlanish, bolaga xos nutqning tabiiy bosqichi tasvirlangan.

- Ko‘zing qurmasin, – kampir jilmaydi, – endi tiling chiqib qoldi. Boyadan beri qovog‘ingdan qor yog‘ayotgan edi. (Oydin. Kelin o‘g‘il tug‘ibdi)

Bu kontekstdagi frazeologik birlik ko‘chma ma’noda ishlatilgan va gap nutqqa ega odamning uzoq vaqt indamay yurganidan so‘ng gapira boshlashini ifodalagan. Bu qo‘llanishda frazeologik birlikning asosiy ma’nosi saqlangan, lekin ko‘chma semantik otenka paydo bo‘lgan.

- Ko‘rib turibsiz, kasalmas. Ana, pulni olib, uyga dingillab kirib ketdi. – Oyim aytganday, borgan sari tiling chiqyapti. (S. Zunnunova. Latta).

Kontekstdagi ifoda frazeologik birlikni yanada kuchli ko‘chma, ijtimoiy-pragmatik ma’noni ifodalashiga sabab bo‘lgan. Bu yerda mazmun shunchaki indamaslikdan keyin gapirish emas, balki juda ko‘p gapirish, o‘z fikrini bemalol ayta boshlash jarayonini anglatadi. Frazeologik birlik metaforik kengayish orqali “gapirishga jur‘at topish”, “ko‘proq gapira boshlash” ma’nosini salbiy konnotatsiya bilan aks ettirgan. Frazeologik birlik kontekstga ko‘ra jismoniy-nutqiy → ruhiy faollashuv → gapdonlik kabi semantik o‘zgarish bosqichlariga ega bo‘ladi, ya’ni qayd etganidek, frazeologik birlikning ma’nosi “kengayuvchi sema”lar orqali turli kontekstlarda farqlanadi.

Keyingi polisemantik frazeologik birlik “taxtaga tortmoq” ikkita kontekstual ma’noga ega bo‘lib, badiiy matnda muallifning idiosstiliga ko‘ra yangi semantik qirralarini namoyon etgan. Masala, frazeologik birlik birinchi kontekstda “kimnidir qattiq tanqid ostiga olish; og‘ir ahvolga qo‘yish” ma’nosini:

- Oqsoqol uni ikki modda bilan taxtaga tortib, til-jag‘ini bog‘lab qo‘ygan edi. (S. Ahmad. Hukm)

Ikkinchi kontekstda “jonlilikni yo‘qotish, mazmunsizlantirish” ma’nosini ifodalangan:

- Bu til... har qanaqa o‘ynoqi mazmunni taxtaga tortadi. (A. Qahhor. Quyushqon)

Xuddi shu xususiyatni “suvi qochgan” frazeologik birligida ko‘rishimiz mumkin. Birinchi gapda, frazeologik birlikning “yangilikning yo‘qlishi”, “quruqlik”, “qotish” sememalari faollashgan:

- Kampir ... suvi qochgan ikkita nonni sindirib, o‘rtaga jiyda to‘kdi. (A. Muxtor. Tug‘ilish).

Keyingi misolda esa yozuvchi o‘z mahorati orqali frazeologik birlikni “o‘z jozibasini, go‘zalligini yo‘qotgan; qarib qolgan” kontekstual ma’nosida qo‘llagan:

- Bordi-yu Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo‘lgan kampirsimon bir xotin bo‘lsa-chi? (A. Qahhor. Ko‘k convert. Tnalangan hikoyalar. – Toshkent, 2013. – B. 74.).

“Soya solmoq” frazeologik birligida ham kontekstning badiiy va emotsional qatlamlari frazeologik birlikning metaforik kengayishiga sabab bo‘lgan:

- Tepalikdagi chinor, ikki tup sada qayrag‘och to‘rt-besh kishilik talay supalarga soya solib turardi. (A. Qahhor. Asror bobo). Ushbu gapda frazeologik birlik “ko‘lanka tushirib turish” va shu orqali “tabiiy himoya yaratish, huzur yoki qulaylik ulashish” ma’nosini ijobiy konnatatsiya bilan aks ettirgan.

- Shoazimning... Hakimovlar haqidagi pichingida... Mahkamning eng aziz tuyg‘ulariga soya solib, ta’bini tirriq qilardi. (P. Qodirov. Uch ildiz. – Toshkent, 1979. – B. 34.). Bu gapda esa frazeologik birlik “noxush ta’sir ko‘rsatish” ma’nosida salbiy konnatatsiyada namoyon bo‘lgan.

Maqola sarlavhasida keltirilgan “sochi oqarmoq” frazeologik birligi ham yuqorida tahlil qilingan polisemantik frazeologik birliklar kabi semantik o‘zgarishlarga uchragan hamda kontekstual ta’sir, yozuvchining badiiy mahorati kabi omillar asosida polisemantik xususiyatiga ega bo‘lgan:

1. qarimoq, keksayib qolmoq: - Meniki singari uy, ro‘zg‘orga ega bo‘lguncha sochlari oqarib ketadi. (A. Qahhor. Sarob. Asarlar, I jild. – Toshkent, 1987. – B. 213.)

2. biror faoliyatda uzoq vaqt sarflab tajriba orttirmoq: - Savdo aqli uni sharqning hamma mamlakatlarini kezman, sayohat va tijoratda sochi oqargan mashhur savdogar deb tanir edi. (A. Muxtor. Opa-singillar. – Toshkent, 1955. – B. 77.).

Birinchi gapda frazeologik birlik keksayishni “soch oqarishi” orqali obrazli tarzda bayon qilsa, ikkinchi gapda shu ma’no asosida “yashagan hayoti davomida orttirgan tajriba va ko‘nikmalari” kontekstual ma’nosi yasalgan, ya’ni frazeologik birlikda metaforik kengayish sodir bo‘lgan.

Xulosa. Tahlil qilingan barcha frazeologik birliklar polisemantiklik tabiatiga ega, ya’ni bir nechta semantik ottenkalarga ega. Har bir frazeologik birlikda asosiy lug‘aviy ma’no mavjud va kontekst ta’sirida yangi, obrazli yoki pragmatik ma’nolar hosil bo‘ladi. Bu jarayon o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning kontekstga bog‘liqligi va semantik moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Kontekst frazeologik birlikning ma’nosini faollashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi va semantik jihatdan boyishiga hamda ifodaviylik imkoniyatlarini kengaytishiga olib keladi. Bundan tashqari, matnning stilistik xususiyatlari, yozuvchining mahorati kabi omillar ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.
2. Мокиенко В.М. Славянская фразеология. – М., 1989.
3. Мелерович А.М. Введение в общую фразеологию. – М., 2008.
4. Фёдоров А.И. Основы общей фразеологии. – Л., 1973.

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. Filol.fan. dri...diss. – Toshkent, 1966.– 262 b.
6. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol.fan.dok. ...diss. – Toshkent, 1993. – 297 b.
7. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent.: Fan, 1991. – 276 b.
8. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 338 p.
9. Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1988. – 258 p.
10. McCarthy M., O’Dell F. English Idioms in Use. – Cambridge: CUP, 2002.